

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**MAMADJONOV ADHAMJON BAXTIYORJON O‘G‘LI**

**TURKIYANING MARKAZIY OSIYODAGI TASHQI SIYOSATIDA**  
**“YUMSHOQ KUCH” OMILI**

**23.00.04 – “Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining**  
**siyosiy muammolari”**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

UO‘K: 327(560)+(543)

KBK:66.4(5Turk)+(54)

M-23

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD)  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по политическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract  
the Doctor of philosophy (PhD) in political Sciences**

**Mamadjonov Adhamjon Baxtiyorjon o‘g‘li**  
Turkiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatida “yumshoq kuch” omili.....3

**Мамаджонов Адхамжон Бахтиёржон ўғли**  
Фактор «мягкой силы» во внешней политике Турции в Центральной Азии.....22

**Mamadjonov Adhamjon Bakhtiyorjon ugli**  
The factor of "soft power" in the foreign policy of Turkey in Central Asia.....44

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**  
Список опубликованных работ  
List of published works

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**MAMADJONOV ADHAMJON BAXTIYORJON O‘G‘LI**

**TURKIYANING MARKAZIY OSIYODAGI TASHQI SIYOSATIDA**  
**“YUMSHOQ KUCH” OMILI**

**23.00.04 – “Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaq taraqiyotining**  
**siyosiy muammolari”**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ss411 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Sayfullayev Durbek Baxtiyorovich</b> tarix fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Muhammadsidiqov Muhammadolim Muhammadroziq o'g'li</b> siyosiy fanlar doktori, professor <b>Jalilov Aktam Tashnazarovich</b> siyosiy fanlar doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O'zbekiston Xalqaro islomshunoslik akademiyasi</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc/03.29.12.2022.Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: [sharq\\_ilmiy@mail.ru](mailto:sharq_ilmiy@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.A.Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi  
v.b., siyosiy fanlar doktori, professor

**O.I.Alimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**E.S. Sultonova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar  
doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi globallashuvning murakkab rivojlanish sharoitida davlatlar tashqi siyosatini amalga oshirishda “yumshoq kuch” konsepsiyasidan foydalangan holda o‘zaro manfaatli aloqalar va ishonchli sheriklik munosabatlarini o‘rnatish hamda ularni yanada yuqori bosqichga olib chiqish masalasiga jiddiy e‘tibor qaratmoqda. Ayniqsa, mamlakatlar o‘rtasidagi ishonchsizlik va raqobat muhiti kuchayib borayotgan hozirgi davrida o‘zaro hamkorlik, birdamlik va turli nizolarni diplomatik muzokaralar vositasida hal etish maqsadida jahon hamjamiyati o‘z e‘tiborini “yumshoq kuch” omiliga qaratishi tufayli uni tadqiq etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda Turkiya Respublikasi o‘zining tashqi siyosiy faoliyatida yumshoq kuch komponentlaridan keng va samarali foydalanmoqda. Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarida madaniy, iqtisodiy va siyosiy yo‘nalishlardagi hamkorligi ko‘proq yumshoq kuch omili bilan bog‘langan bo‘lib, bunda Turkiya turli tashkilot hamda muassasalar faoliyatidan keng foydalanmoqda. Shu jihatdan, ilmiy tadqiqotlarda Turkiyaning Markaziy Osiyo bilan ikki va ko‘p tomonlama hamkorligi o‘rganish hamda mintaqaga nisbatan qo‘llayotgan yumshoq kuch vosita va yondashuvlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda Turkiyaning “yumshoq kuch”ni qo‘llash tajribasi bo‘yicha katta amaliyotga ega davlat hisoblanadi. Shu jihatdan, uni ilmiy jihatdan kompleks tarzda o‘rganish, shundan kelib chiqib, Yangi O‘zbekiston yumshoq kuchini ishlab chiqishda foydalanish, shuningdek, dunyo davlatlari “yumshoq kuch”ining salbiy ta‘siriga qarshi immunitetni shakllantirish jihatdan ham ahamiyatlidir. Zero, bugungi avj olib borayotgan zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi kurashda tashqi siyosatda “yumshoq kuch”ning rolini oshirish borasidagi sa‘y harakatlarni jadallashtirish va aniq maqsadlarni ishlab chiqishni qo‘llab quvvatlayman. Bu boradagi orzu-intilishlarimiz BMT Bosh Assambleyasining “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasini qabul qilishga qaratilgan tashabbusimizda yaqqol namoyon bo‘ldi”<sup>1</sup>.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi (2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son), “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son), “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son), “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 5-apreldagi PF-5400-son) farmonlari, “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi (2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son), “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son) qarorlari, shuningdek, sohaga oid

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. “O‘ZBEKISTON” Toshkent - 2022. - B. 34.

boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalarni tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Bugungi kunda xalqaro munosabatlarda “yumshoq kuch”ning oʻrni va ahamiyati hamda davlatlar tashqi siyosatida qoʻllash usullari borasida, shuningdek, Turkiya tashqi siyosati va unga yumshoq kuch omilining taʼsiri boʻyicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlari, dastur va loyihalar faoliyat koʻrsatmoqda. Jumladan, Xalqaro yumshoq kuch indeksi (Global Soft Power Index), Turkiya Tashqi siyosat instituti (DPE – Dış Politika Enstitüsü), Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti (МГИМО – Московский государственный институт международных отношений), Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti kabi yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan Turkiya tashqi siyosatida yumshoq kuchning oʻrni va Markaziy Osiyoda qoʻllash amaliyoti borasidagi ilmiy tadqiqotlari, eʼlon qilingan materiallari va hisobotlari asosida oʻrganib chiqildi.

Tadqiqot ishida keltirilgan mavzuga oid olimlarning ilmiy ishlarini quyidagi guruhlariga ajratib, tahlil qilish maqsadga muvofiq:

*Birinchi guruhga* turk tadqiqotchilarining<sup>2</sup> Turkiya Respublikasining tashqi siyosati, yumshoq kuch konsepsiyasi va uni Turkiya tashqi siyosatidagi oʻrni, Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik jarayonlari hamda unda yumshoq kuchdan foydalanish masalalari atroflicha ochib berilgan. Jumladan, Kadir Sancak, İbrahim Kalin, Ahmet Davutoğlu, Nihat Yılmaz, Muharram Ersi, Ali Balici, Ahmet Erdi Ozturk, İrfan Sancak, Tuba Çavuş, Mustafa Durmuş ve Harun Yılmaz kabi turk olimlarining asarlarida Turkiya tashqi siyosati va unda yumshoq kuchni qoʻllanilishi, Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarining rivojlanishi, turk yumshoq kuchining mintaqa davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga madaniy, siyosiy, iqtisodiy, diniy hamda media vositalari orqali koʻrsatgan taʼsiri tahlil etiladi.

*Ikkinchi guruhga* MDH davlatlari olimlarining<sup>3</sup> Turkiya Respublikasining tashqi siyosati, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan Turkiyaning madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalari, turk madaniy diplomatiyasi taʼsiri kabi masalalarni qamrab olgan tadqiqotlarini keltirish mumkin. Xususan, tadqiqot ishida V.A. Avatkov, D.R. Urmanov, A.V. Yenokyan, A. Babilo, B. Asanov, A. Beloglazov, M. Axmedova, A. Grozin, O. Leonova, A.S. Isakov, Yu.V. Marvina, T. Kuzmina, I. Chixaryov, O. Ruskova, Y.A. Sofokina, A. Nasibova, E.T. Mexdiyev, A.B. Sulemanov, P.B. Parshin, A.S. Ergashev kabi olimlarning ilmiy izlanishlari muhim nazariy manba boʻlib xizmat qilgan.

---

<sup>2</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati” qismida keltirilgan.

<sup>3</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati” qismida keltirilgan

*Uchinchi guruhni*, Turkiya Respublikasining zamonaviy xalqaro munosabatlarda o'рни, Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlik jarayonlari, Turkiya va mintaqa davlatlari o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama munosabatlar tadqiq etilgan mahalliy olimlarning asarlari tashkil etadi. Ushbu olimlar sirasiga A. Jalilov, A. Qosimov, B. Imomov, M. Abdurazzoqova, H. Azimov, N. Qosimova, M. Muhammadsidiqov, Sh. Yovqochev, D. Sayfullayev, S. Jo'rayev, F. Karimov, S. Ubaydullayeva, O. Sirojov<sup>4</sup> va boshqa olimlarni kiritish mumkin.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarning bugungi murakkab va nizolar ortib borayotgan bir sharoitida harbiy amaliyotlar hamda kuch ishlatish usullari har doim ham samarali natija bermayotganligi, dunyo davlatlarining ularni hal etishda diplomatiya va kelishuv yo'llarini izlashga majbur etmoqda. Shu o'rinda ta'sirning yumshoq kuch amaliyoti asosiy kun tartibiga ko'tarilmoqda. Shu boisdan, yumshoq kuch konsepsiyasi, uni qo'llashning usullari va mexanizmlarini o'rganish o'zbek olimlarining ham diqqat-e'tiboriga tushgan. Xususan, Sh. Tadjiyev, D. Xojimurodova, A. Boboxonov<sup>5</sup> kabi olimlar yumshoq kuch konsepsiyasini xorijiy davlatlar misolida tahlil etib, o'z xulosalarini taqdim etganlar.

*To'rtinchi guruh* tadqiqotlari doirasiga G'arb olimlarining ingliz tilidagi tadqiqot<sup>6</sup> ishlarini kiritish mumkin. Jumladan, J. Nay, R.O. Kahone, M. Frayzer, H. Guallarotti, A. Vuving, Hendrik W. Ohnesorge, J. Mattern, C. Nicholas, L. Berger V. Simona kabi olimlar tadqiqotlarida "yumshoq kuch", "aqlli kuch" kabi tushunchalarning mohiyati va tashqi siyosatdagi ahamiyati haqida batafsil ma'lumot bergan bo'lsalar, C. Morris, L. Berge, A. Mango, O. Jem, P.B. Golden, I. Cem, Z. Fida, M. Ershi va boshqa olimlarning tadqiqotlari Turkiya tashqi siyosatida yumshoq kuchning o'рни va ahamiyati borasidagi muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlarni e'tirof etgan holda ta'kidlash joizki, mazkur mavzuni yoritgan har bir tadqiqotchi muammoni, avvalo, o'z mamlakatining milliy manfaatlari nuqtai nazaridan o'rgangan. Tadqiqotlar doirasida yumshoq kuch konsepsiyasi, Turkiya Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalari borasida nazariy va amaliy yo'nalishda muayyan natijalarga erishilgan. Biroq, mazkur olimlarning ishlarida Turkiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatida aynan yumshoq kuchdan foydalanish masalasi atroflicha tadqiq etilmagan. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur mavzuning dolzarb ekanligi asoslangan bo'lib, uni kompleks tarzda tadqiq etishni o'z oldimizga maqsad qildik.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining IL-5221091507 raqamli "Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqbollari (O'zbekistonning tashabbusi asosida)" mavzusidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqoting maqsadi.** Turkiya Respublikasining Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatida "yumshoq kuch" omilini ochib berishdan iborat.

---

<sup>4</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

<sup>5</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

<sup>6</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

**Tadqiqotning vazifalari.** Mazkur maqsadga erishish uchun dissertatsiyada quyidagi vazifalar belgilandi va bajarildi:

“Yumshoq kuch” konsepsiyasiga oid nazariy yondashuvlar tahlilini amalga oshirish hamda mazkur mavzuga oid tadqiqotlarni o‘rganish;

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda “yumshoq kuch” omili, qo‘llanilish mexanizmi hamda vositalari o‘ziga xos jihatlarni tadqiq etish;

Turkiya tashqi siyosatining konseptual huquqiy asoslari va ustuvor yo‘nalishlarini ochib berish;

Turkiyaning “yumshoq kuch” manbalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlilini amalga oshirish;

Turkiyaning yumshoq kuch siyosatini amalga oshiruvchi institutsional mexanizmlar va vositalarini aniqlash;

Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarida “yumshoq kuch”ning o‘rni va ahamiyatini ochib berish;

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi yumshoq kuchida “Turkiy dunyo” strategiyasining ta’siri, undagi imkoniyatlar va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni tadqiqini amalga oshirish;

O‘zbekiston tashqi siyosatida “yumshoq kuch”dan foydalanishning Turkiya tajribasi hamda istiqbollari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

**Tadqiqotdning obyekti** sifatida Turkiya Respublikasi tashqi siyosatida “yumshoq kuch” konsepsiyasining qo‘llanilishi belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** Turkiya Respublikasining Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatida “yumshoq kuch” omili va uni amalga oshirishdagi muammo va istiqbollar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiylik, muammoli-xronologik va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Turkiya Respublikasining zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rni va faol ishtirokining ortib borishi, bugungi tashqi siyosatdagi milliy manfaatlarini amalga oshirishda “yumshoq kuch” vositalaridan samarali foydalanayotgani hamda ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik jarayonlaridagi “yumshoq kuch” diplomatiyasining madaniy-gumanitar, savdo-iqtisodiy va ommaviy axborot vositalari kabi sohalarda erishilgan yutuqlarini turkiy davlatlar makonida tadqiq etishga qaratilgan tashabbuslari “turkiy yumshoq kuch” modeliga ko‘ra asoslab berilgan;

Markaziy Osiyo mamlakatlari strategik kun tartiblarini shakllantirayotgan va xalqaro munosabatlarning obyekti maqomidan faol subyekti sifatida jadal rivojlanayotgan mintaqaga aylanayotgani, Turkiy davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zaro ishonch, tenglik va hurmat tamoyillari hamda ko‘p tomonlama hamkorlik aloqalarning ijtimoiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va ta’lim singari ustunlarga asoslanishi “Turkiy davr” konsepsiyasi asosida isbotlangan;

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi “yumshoq kuch” siyosati tarixiy, til, madaniy, diniy va mafkuraviy vositalar orqali mintaqaga ta’sir ko‘rsatishi, bu boshqa tashqi aktorlarning “yumshoq kuch”ga yo‘naltirilgan strategiyasini ikki tomonlama aloqalar doirasidan tashqari ko‘p tomonlama institutsional mexanizmlar asosida amalga

oshirishiga turtki bo'layotgani va "yumshoq kuchga qarshi yumshoq kuch" tamoyilini ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqib, Markaziy Osiyoning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha mintaqaviy agentligini tashkil etish taklifi dalillangan;

Turkiya Respublikasining tashqi siyosatida "yumshoq kuch"dan foydalanish amaliyotini tahlil qilish asosida, "Markaziy Osiyo ruhi", vositachilik, xalq va madaniy diplomatiyaning to'plangan tajribasi hamda O'zbekistonning xorijiy maydondagi ijobiy imidjini yanada kengroq targ'ib qilishga qaratilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "yumshoq kuch" siyosatini amalga oshirishning konseptual modelini takomillashtirish, hamda mazkur modelni samarali amalga oshirish maqsadida alohida tashqi hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi O'zbekiston Tashqi Hamkorlik Agentligini tashkil etish g'oyasi ilgari surilgan hamda uning zarurati ilmiy asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy, savdo-iqtisodiy, gumanitar aloqalaridagi statistik ko'rsatkichlar tahlili asosida asosan qaysi sohalarga e'tibor qaratilganligi, yutuq va kamchiliklari ochib berilgan;

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatida yumshoq kuchdan foydalanish zarurati asoslanib, uni ishlab chiqishda Turkiya Respublikasi tajribasidan foydalanish takliflari ilgari surilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiyalar materiallarida e'lon qilinganligi, amaliyotda joriy qilingani va vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlanganligi bilan ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning materiallaridan siyosatshunoslik, jahon siyosati, xalqaro munosabatlar, mintaqaviy-siyosiy jarayonlar, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik masalalariga oid darslik va qo'llanmalar tayyorlashda, tashqi siyosatga doir tadqiqotlar o'tkazishda foydali bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining o'quv kurslari va dasturlarida "Konfliktologiya", "Siyosatshunoslik", "Geosiyosat", "Jahon siyosati" fanlarini o'qitishda hamda tegishli yo'nalishlardagi tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Turkiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatida "yumshoq kuch" omilini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari va xulosalari asosida:

Turkiya Respublikasining tashqi siyosatida "yumshoq kuch"dan foydalanish amaliyotini tahlil qilish asosida, "Markaziy Osiyo ruhi", vositachilik, xalq va madaniy diplomatiyaning to'plangan tajribasi hamda O'zbekistonning xorijiy maydondagi ijobiy imidjini yanada kengroq targ'ib qilishga qaratilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "yumshoq kuch" siyosatini amalga oshirishning konseptual modelini takomillashtirish, hamda mazkur modelni samarali amalga oshirish maqsadida alohida tashqi hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi O'zbekiston

Tashqi Hamkorlik Agentligini tashkil etish g'oyasi ilgari surilgan hamda uning zarurati borasidagi ilmiy xulosalaridan O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi tomonidan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 28-sentabrdagi №15/29325-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi "yumshoq kuch" siyosati tarixiy, til, madaniy, diniy va mafkuraviy vositalar orqali mintaqaga ta'sir ko'rsatishi, bu boshqa tashqi aktorlarning "yumshoq kuch"ga yo'naltirilgan strategiyasini ikki tomonlama aloqalar doirasidan tashqari ko'p tomonlama institutsional mexanizmlar asosida amalga oshirishiga turtki bo'layotgani va "yumshoq kuchga qarshi yumshoq kuch" tamoyilini ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqib, Markaziy Osiyoning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha mintaqaviy agentligini tashkil etish taklifi va ilmiy xulosalaridan millatlararo madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash, uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar va tadbirlarni tashkil qilish bo'yicha rejalar ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xalqlar do'stligi bo'yicha qo'mitasining 2024-yil 9-sentabrdagi №14-08-1465-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, mazkur takliflar qo'mitaning sohaviy, axborot-tahliliy materiallarni boyitish va ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari strategik kun tartiblarini shakllantirayotgan va xalqaro munosabatlarning obyektidan maqomidan faol subyekti sifatida jadal rivojlanayotgan mintaqaga aylanayotgani, Turkiy davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro ishonch, tenglik va hurmat tamoyillari hamda ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarning ijtimoiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va ta'lim singari ustunlarga asoslanishi "Turkiy davr" konsepsiyasi asosida amalga oshirilayotgani haqidagi ilmiy xulosalari, taklif va tavsiyalari Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan "Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqbollar (*O'zbekistonning tashabbuslari asosida*)" amaliy tashabbuskor loyihasi doirasida foydalanilgan. (*Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2024-yil 28-iyundagi №01-04-01/1446-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada tadqiqotda ilgari surilgan ma'lumotlar loyiha doirasida chop etilgan tahliliy materiallarni tayyorlashga va tegishli tashkilotlarga taqdim etishga xizmat qilgan

Turkiya Respublikasining zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'rni va faol ishtirokining ortib borishi, bugungi tashqi siyosatdagi milliy manfaatlarini amalga oshirishda "yumshoq kuch" vositalaridan samarali foydalanayotgani hamda ikki va ko'p tomonlama hamkorlik jarayonlaridagi "yumshoq kuch" diplomatiyasining madaniy-gumanitar, savdo-iqtisodiy va ommaviy axborot vositalari kabi sohalarda erishilgan yutuqlarini turkiy davlatlar makonida tadqiq etishga qaratilgan tashabbuslari "turkiy yumshoq kuch" modeliga asoslanayotganligi kabi fikrlardan O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi faoliyati hamda axborot, tahliliy xujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan. (*O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiya markazining 2024-yil 7-apreldagi №179/25-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada tadqiqotda ilgari surilgan ma'lumotlar

tashkilot faoliyatidagi tahliliy materiallarni tayyorlashga va tegishli tashkilotlarga taqdim etishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ilmiy ishni yozish doirasida keng qamrovli materiallar ishlab chiqildi, maqolalar va tahliliy materiallar konferensiyalarda dissertatsiya natijalari sifatida aprobatsiyadan o'tkazildi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro darajadagi va 4 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola (ulardan 9 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 154 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan, mavzuning o‘rganilganlik darajasi hamda uning dissertatsiya ishi bilan bog‘liqligi bayon qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan. Tadqiqning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi hamda asosiy tadqiqot usullari ko‘rsatib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiya va e‘lon qilingan ishlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Zamonaviy xalqaro munosabatlarda “yumshoq kuch” konsepsiyasini tadqiq etishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida yumshoq kuch konsepsiyasi borasidagi nazariy yondoshuvlar tahlil etilgan.

Birinchi paragrafda kuch tushunchasi hamda yumshoq kuch konsepsiyasi realizm, liberalizm va neoliberalizm maktablari nuqtai nazridan tadqiq etilgan bo‘lib, unga doir zamonaviy integratsion va fanlararo yondoshuv ishlab chiqish, shuningdek, yumshoq kuch konsepsiyasiga doir g‘arb va sharq olimlarining qarashlari o‘rganilgan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafida zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida “qattiq kuch”, “yumshoq kuch”, “aqlli kuch” omili, o‘rni va ahamiyati tizimli ravishda tahlil etilgan. Shuningdek, yumshoq kuchni qo‘llash bo‘yicha jahonda yetakchi davlatlar tajribasi, ularning yondoshuvlarini tadqiq etgan holda tahliliy xulosalar taqdim etilgan.

Bunda ko‘pgina tadqiqotchi va mutaxassislarining fikri o‘rganilgan, tahlillar Jozef Nay siyosiy fanlarda ilgari o‘rganilgan tomonlarni umumlashtirib, “kuch” tushunchalarini “yumshoq”, “qattiq” va “aqlli” kuchlarga ajratgan holda ularning har biriga ta‘rif keltirganligi, shuningdek uning qarashlariga qarshi fikr bildirgan va aksincha uni yanada boyitgan olimlar qarashlari ham kompleks o‘rganilgan. Shu bilan birga, xalqaro munosabatlarda “kuch” tushunchasi bo‘yicha turlicha bahs-munozaralar va yondoshuvlar bo‘lganligi hisobga olinsa, uni tadqiq etish dolzarbdir. Shu nuqtayi nazardan, siyosiy maktablarning “kuch” mohiyati, uning siyosat va xalqaro munosabatlardagi rolini tushunishga oid qarashlarini tahlil qilish davomida turli maktab vakillarining yondashuvlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

*Realizm maktabi.* Xalqaro munosabatlarda realizm maktabi vakillariga ko‘ra kuch tushunchasi klassik qarashda majburlash, zo‘ravonlik va bosim orqali ta‘sir qilishdir, dunyo tartibotining - “kuch” (qattiq kuch) toifasi ikkita asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: harbiy kuch va iqtisodiy kuch deb tushuntiradi. Shuningdek, kuchning asosiy manbalari davlat resurslari ekanligi ta‘kidlanadi<sup>7</sup>. Ushbu maktab vakillaridan bo‘lgan italiyalik faylasuf Nikolo Makiavelli ijtimoiy va siyosiy ongga ta‘sir ko‘rsatishning samaradorligi va metodologiyasini o‘z qarashlarida tasvirlagan. U markazlashgan milliy davlat tarafdori bo‘lgan va qattiq kuchni davlat manfaatlarini ro‘yobga chiqaruvchi asosiy vosita deb bilgan. “Hukmdor” asarining “Davlatlarning kuchi

<sup>7</sup> Waltz K. Theory of International Politics. Reading, - MA: Addison-Wesley, 1979. – P. 131.

qanday o‘lchanadi?” nomli bobida “kuch” tushunchasiga aniqlik kiritib, uni ijtimoiy mazmun-mohiyatini tushuntirishga harakat qilgan<sup>8</sup>.

Maktabning boshqa vakili R.Aron nazdida kuch an’anaviy ravishda davlatning harbiy qudrati bilan o‘lchanadi, bu uning xalqaro maydondagi obro‘sining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lgan va shunday bo‘lib qolishini ta’kidlaydi<sup>9</sup>.

Realizm vakillarining ko‘pchiligi davlat o‘z maqsadlariga erishish yoki davlat xavfsizligi va suverenitetiga haqiqiy tahdidlar paydo bo‘lganda foydalanish uchun yumshoq kuch imkoniyatlariga shubha qilishadi. Shu munosabat bilan, ular qattiq kuch tinchlik va barqarorlikning kafolati ekanligiga urg‘u berib, davlatlar yumshoq kuchga mos keladigan ta’sir manbalariga tayanib, bunday kafolatga ega bo‘la olmasligiga ishonch bildirishadi<sup>10</sup>.

*Liberalizm maktabi.* Liberal nazariya vakillariga ko‘ra integratsiya jarayonlari, xalqaro tashkilotlar, xalqaro huquq vositalari va mexanizmlari hamda iqtisodiy aloqalar xalqaro munosabatlarni tartibga solishning imkoniyati deya hisoblashadi. Ular “kuch” tushunchasini faqat harbiy talqin qilishning ustunligini shubha ostiga qo‘yishdi. Ushbu maktab tarafdorlari zamonaviy dunyoda davlatlarning o‘zaro munosabatlaridagi qarashlarini o‘zgartirib, tashqi siyosatida faqat harbiy usullarning qo‘llanilishi endi samarasizligi va global kuchlar axborot texnologiyalari, umumiy iqtisodiy manfaatlar, xalqaro tashkilotlar doirasidagi qo‘shma majburiyatlar orqali tobora bog‘lanib boishini ta’kidlashadi. Shundan kelib chiqib, integratsiya sharoitida harbiy vositalar chetga surilib, yangi nomoddiy vositalar asosiy o‘ringa chiqishi mumkinligiga ishonch bildirishadi<sup>11</sup>.

Liberal nazariya vakillari yangi dunyo tartibotida xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, nodavlat tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar va kichik davlatlarning imkoniyatlari hamda ta’sirini ko‘paytirishni ilgari surishadi. Xalqaro munosabatlarga yirik kuch va resursga ega bo‘lmay turib ham dunyo siyosatida muhim o‘rin egallashi mumkin, deb hisoblanadi. Misol uchun, Norvegiya, Singapur, Janubiy Koreya davlatlari. Bugungi kunga kelib rivojlanib borayotgan Turkiya Respublikasi ham o‘zining boy tarixiy madaniyati, keng turizm salohiyati, xalqaro maydondagi vositachilik roli kabi omillarini hisobga olgan holda shunday davlatlar qatoriga kiritish mumkin.

*Neoliberalizm maktabi.* Nisbatan yangi maktab neoliberalizm vakillari nazariyasi ko‘proq nomoddiy kuch manbalaridan madaniyat, qadriyat, ommaviy diplomatiyadan foydalanishga asoslangan konsepsiyani ilgari surdilar. Neoliberalislarning asosiy qarashlari “urush”, muammolar va xalqaro munosabatlarning vositasi ekanligini inkor etishdir. Ularning nazdida tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotga erishishning eng muhim sharti bu hamkorlikni rivojlantirish. Qattiq kuch vositalaridan foydalanish tarafdorlari bo‘lgan realizmdan farqli o‘laroq, o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish xalqaro munosabatlarda davlatlar uchun eng foydalililigiga ishonish ushbu maktab vakillarining ustuvor g‘oyasi sanaladi. Neoliberalizmning yetakchi vakillari R.Koheyn

<sup>8</sup> Nikollo Makiavelli. “Hukmdor”, Toshkent. – B. 30.

<sup>9</sup> Арон Р., Бабило А.М. “Мягкая сила” международной политике: особенности национальных стратегий // Вестник Бурятского государственного университета. – 2013, №14. – С. 129-130.

<sup>10</sup> Лебедева М.М. «Мягкая сила»: понятие и подходы. Вестник МГИМО – Университета. 2017. 3(54). – С. 212-223.

<sup>11</sup> Бобохонов А. Т. “Мягкая сила” во внешнеполитической практике Китая. Дис. по PhD. УМЕД – 2023. – С. 24

va J.Nay XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan xalqaro-siyosiy ko‘rinishni tasvirlash uchun kompleks o‘zaro bog‘liqlik konsepsiyasini taklif qildi. Mualliflar transmilliy aloqalarning kuchayishi va jamiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning oshishiga ishora qildilar.

*Konstruktivizm.* Ushbu nazariya xalqaro munosabatlardagi eng yangi nazariya bo‘lib, u xalqaro munosabatlarni shakllantirishda g‘oyalar, me‘yorlar va o‘ziga xosliklarning roliga asosiy e‘tiborini qaratadi. Konstruktivistlar xalqaro tizim shunchaki moddiy kuch taqsimoti emas, balki davlatlarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatini shakllantiradigan umumiy g‘oyalar, me‘yorlar va o‘ziga xosliklarning yig‘indisi ekanligini ta’kidlaydilar.

Konstruktivistlarning ta’kidlashicha, yumshoq kuch boshqa mamlakatlarning o‘ziga xosligi va tushunchalarini o‘zgartirishda ayniqsa samarali bo‘lishi mumkin, bu ularning xatti-harakatlarida o‘zgarishlarga olib keladi. Masalan, kuchli madaniy jozibaga ega mamlakat o‘z qadriyatlari va me‘yorlarini targ‘ib qilishi mumkin, bu esa boshqa mamlakatlarni o‘xshash qadriyatlar va me‘yorlarni qabul qilishga olib kelishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Turkiya tashqi siyosatida yumshoq kuch omili va uni amalga oshiruvchi manbalari”** deb nomlangan ikkinchi bobi Turkiya tashqi siyosatining evolyutsion bosqichlari, konseptual huquqiy asoslari, tashqi siyosiy yo‘nalishlari, tashqi siyosatda yumshoq kuchdan foydalanish imkoniyatlari hamda muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Bobning birinchi paragrafida zamonaviy Turkiya tashqi siyosatining tadrijiy rivojlanishi tadqiq etilib, uning dastlab g‘arbga yo‘naltirilganligi, sovuq urush yakunidan so‘ng esa mustaqil va ko‘p vektorli tashqi siyosat olib borganligini ochib berilgan. Shuningdek, Turkiyada “Adolat va taraqqiyot” partiyasi hukumatga kelgan davrdan boshlab hozirgacha bo‘lgan tashqi siyosat o‘zgarishlarni tahlil etilgan. Shu o‘rinda, Turkiyaning “Misak-i milli”, “Takrirai sukun”, “To‘rt oyoq strategiyasi”, “Qo‘shnilar bilan nol muammo”, “Turkiy dunyo”, “Vision-2023”, “Vision-2050” kabi konsepsiya va strategiyalarining mohiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Qolaversa, Turkiya tashqi siyosatida yumshoq kuchdan foydalanishning milliy turk modelini ta’siri va imkoniyatlari o‘rganilgan. Turkiyada 2017-yilda o‘tkazilgan islohotlardan so‘ng qaror topgan prezidentlik boshqaruvi davri tashqi siyosati alohida o‘rganilgan bo‘lib, unda so‘nggi yillarda respublika tomonidan ilgari surilgan tashqi siyosat tashabbuslari tahlil etilgan.

Turkiya Respublikasi tashkil etilgandan to XXI asrga qadar o‘tgan davr mobaynida tashqi siyosat amaliyotida g‘arbona qarashga urg‘u berib keldi. Biroq, zamonaviy Turkiya o‘z tashqi siyosatida XXI asrning boshlariga kelib boshqa muqobil variantlarni ko‘rib chiqish tamoyilini namoysh etmoqda. Xususan, tashqi siyosatda sharqqa burilish tamoyili mamlakat boshqaruvida AKPning hokimiyatga kelishi bilan kun tartibidagi birinchi masala qilib ko‘tarilgani aytish mumkin.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafida Turkiya yumshoq kuchining manbalari tadqiqi amalga oshirgan bo‘lib, unda asosan Turkiyaning boy tarixi, madaniy merosi, o‘ziga xos turmush tarzi, geografiyasi, turfa madaniyat mujassamlashtirilgan jamiyat uyg‘unligi, siyosiy qadriyatlar, diniy bag‘rikenglik hamda progmatik tashqi siyosatiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Turkiyaning yumshoq kuch siyosatini amalga oshiruvchi institutsional mexanizmlar deb nomlangan uchinchi paragrafida tadqiqotchi mamlakatning tashqi siyosatida yumshoq kuchni amalga oshiruvchi institutsional mexanizmlar va vositalarni tadqiq etgan. Bunda asosan, Turk hamkorlik va taraqqiyot boshqarmasi (TIKA), Yunus Emre instituti, Chet eldagi turklar va qarindosh jamiyatlar (YTB), Qizil yarim oy (asosan tibbiy yordam), AFAT, Diyanet (diniy targ'ibot) va boshqa shu kabi katta - kichik tashkilotlar faoliyati tadqiqi amalga oshirilgan.

**“Turkiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatida “yumshoq kuch”ning o‘rni va istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Turkiya Respublikasining o‘zaro munosabatlarida “turkiy yumshoq kuch”ning qo‘llanilish usullari va mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.

Ushbu bobda Turkiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati, unda yumshoq kuchdan foydalanish imkoniyatlari borasida tahlilni amalga oshirsa, ikkinchidan, mamlakatning mintaqa davlatlari bilan munosabatlarida yumshoq kuchdan foydalanish imkoniyatlari hamda muammolar tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, Turkiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosatida milliy va mintaqaviy tashkilotlar orqali til, ta’lim, madaniy ta’sirlari va bu sohada amalga oshirilayotgan madaniy hamkorlik faoliyati ham ko‘rib chiqiladi. Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida yumshoq kuchdan foydalanishning zarurati, resurs va vositalari tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, uni amalga oshirishda Turkiya tajribasini qo‘llash borasidagi nazariy takliflar ilgari suriladi. Bundan tashqari, tadqiqot Turkiya tomonidan amalga oshirilgan madaniy siyosatida yuz bergan muammolar va yumshoq kuchning rivojlanishi bilan bog‘liq takliflarni ham o‘z ichiga oladi. Turkiya Respublikasi O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik masalalarida ham o‘z “yumshoq kuch”ini qo‘llab-quvvatlashi, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashda yordam berishi mumkin. Bularning barchasi O‘zbekiston tashqi siyosatining diversifikatsiyasiga va mustaqil, barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

